

**SIYOSIY PARTIYALAR SIYOSIY ELITA
REKRUTATSIYASINING ASOSIY OMILI**

Davlataliyev Eldor

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
"Siyosatshunoslik" yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning siyosiy elitaga ta'siri va unga yondashuvning o'lchovlari hamda siyosiy partiyalar amaliy faoliyatida konsentratsiyalashuv va rebranding ko'rinishlari, siyosiy institutlarning elita rekrutatsiyasidagi ro'li va modellari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Siyosat, siyosiy partiya, siyosiy elita, rekrut, serkulatsiya, rekrutatsiya, institutsionalizm, neoinstitutsionalizm, irarxik, konsentratsiya, rebranding, uyushma(NNT), model, byurakratiya.

Jamiyatni elitaga ta'siri shundaki u elita serkulatsiyasini keltirib chiqaradi. Yaniki jamiyatdagi o'zgarish hodisalari serkulatsiya ravishda elitani ham o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Siyosiy institut XX asrning 20-yillari hamda 50-yillar oralig'ida Siyosatshunoslik sohasida institutsionalizm yo'nalishi Robert Mixels, Moris Dyuverje, Ostrogorskiylar tomonida asoslab berilgan. Biroq ularning asoslari siyosiy institutlar nazariyasi go'yasi klassigi edi.

XX asrning 70-yillariga kelib siyosatshunoslikda zamonaviy yo'nalish neoinstitutsionalizm go'yasi rivojlanadi. Mazkur tushunchani klassik tushunchadan farqi shunda ediki, klassik institutsionalizm davlat organlari tizimiga kiruvchi tashkiliy tuzilma sifatida irarxik bo'g'in deb qaralsa neoinstitutsionalizmda esa siyosiy institut siyosiy qadriyatlar, manfaatlar siyosiy strategiyani amalga oshiruvchi siyosiy jarayon subyektidir, deb ta'riflanadi.

Siyosiy elita zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy elitaga yondashuvining uch o'lchovli modeli mavjud:

- I. Vektori: mafkura-kuch-siyosat
- II. Vektori: iqtisodiyot-resurs
- III. Vektori: maqom-ro'l

Va shunday savol paydo bo'ladi: siyosiy partiya siyosiy elitaga xizmat qiladimi? yoki siyosiy elita siyosiy partiyaga xizmati qiladimi?

Siyosiy elita

- Siyosiy partiya siyosiy elitaga xizmat qiladi. Chunki siyosiy elitada maqom, resurs, kuch mavjud.

Siyosiy partiya

- Siyosiy elita-bu katta kuch. Siyosiy partiya-bu siyosat. Kuch doim siyosat uchun xizmat qiladi. Siyosatni amalga oshiruvchi vositasi bu kuch. Ya'ni siyosiy elita siyosiy partiyaga xizmat qiladi.

Mazkur diskursga kengroq qarasaq, ya'ni; siyosiy tizimni harakatlanish hodisasini davlat belgilab bergani uchun u nimaga intilsa, qaysi vektorga kelib to'xtasa siyosiy partiya siyosiy elitani shakllantirayotgan yoki siyosiy elita siyosiy partiyani shakllantirayotganini ko'rishimiz mumkin.

Bunda siyosiy partiyalar amaliy faoliyatida konsentratsiyalashuv va rebranding ko'rnishlariga shakllarini o'zgartiradi:

1-turi;

“Hamdardlar doirasida vositaga aylanuvchi partiya” (O'zbekistonda 2023-yil 9-iyul prezidentlik saylovida ko'rishimiz mumkin: 2021-yilgi prezident saylovida nomzod bo'lgan Alisher Qodirov muddatidan oldingi saylovda “Milliy tiklanish” partiyasi O'zLiDePdan ko'rsatilgan Shavkat Mirziyoyev nomzodini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi)

2-turi;

“Partiya a'zolari doirasida vositaga aylanishi” (partiya a'zolari uchun faoligini saqlab turishi kerak)

3-turi;

“Faollar doirasida vositaga aylanuvchi partiya” (bu siyosiy partiya ommaviy va kadrlar partiyasiga aylanishidir)

Demak insonlarning davlat va jamiyatda hukmron guruhga qo'shilishi jarayonining umumiy qonuniyati mavjud. Bugun anashu qonuniyatlar ichida elitaga yollanish kanallari bo'lib siyosiy partiyalarning maydonga chiqmoqda.

Tarixda ham, bugungi zamonaviy jamiyatlarda ham siyosiy elita rekrutatsiyasida aynan siyosiy partiya birlamchi emas, balki siyosiy institutlarning ham ta'sirini

ko'rishimiz mumkin. Quyidagilar, **siyosiy elita va siyosiy institut rekrutatsiya modellari**, hisoblanadi:

Siyosiy partiya modeli – mazkur model g'arbiy yevropa mamlakatlariga xosdir. Ushbu modelda elitaga kirish uchun da'vogar partiya irarxiyasining barcha bosqichlaridan o'tishi kerak.

Byurokratik apparat vositasi – Yaponiya va Shvetsiya davlatlarida uchratishimiz mumkin. Mazkur modelda elitani byurokratik tizim shakllantiradi, ya'ni mansabdor shaxslar eng kluchovoy nuqtaga o'tiradi, talablar yuqori bo'ladi va o'sha tizim byurokratlashadi.

Diniy tashkilotlar vositasida – mazkur model diniy davlatlar Arab davlatlari, Eron, Italiya, Ispaniya misol bo'ladi.

Uyushmalar(NNTlar ta'siri ostida) – Aqsh prezidenti Roneld Reygen, Polshani sobiq prezidenti Lex Valensalar o'z faoliyatini kasaba uyushmalari qo'mitasidan boshlagan. Ingliz parlamentini kasaba uyushmalari yetakchilari orasidan shakllantirilgan professional siyosatshilar tashkil etadi. Bunda biznes sektorlari va iqtisodiy institutlar faol bo'ladi.

Armiya vositasida – Lotin Amerikasi, Afrika, Isroil mamlakatlarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu modelda harbiy sohadan elita shakllantiriladi

Ta'lim vositasidagi model – mazkur modelda kambrij, oksford, sharl de gol oliy ta'limini tugatgan shaxslar kirish ehtimoli katta.

Xulosa: Siyosiy partiyalar siyosiy elitaga yollanish va mansublikni belgilash jarayonlarining elementi va institutsional mexanizmidir. Ular siyosiy tizim doirasida o'z darajalariga ega bo'ladi va muhim vazifalarni bajaradi. Bugun zamonaviy partiya **“saylovchi-partiya-nomzod”** munosabatlari prizmasi orqali elita mavjudligiga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.